



THE IMPORTANCE OF DEVELOPING PROFESSIONAL COMPETENCE OF FUTURE ENGLISH TEACHERS IN PRESCHOOL EDUCATION

Moydinova Elmira Kamariddinova

PhD, Acting Associate Professor

Uzbekistan State World Languages University

mirlife645@gmail.com

ORCID 0009-0009-2794-6721

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17340734>

ARTICLE INFO

Received: 05th October 2025

Accepted: 10th October 2025

Online: 13th October 2025

KEYWORDS

*professional competence,
educational web resources,
English teacher, digital literacy,
innovative technologies,
preschool education,
methodological training,
communicative approach,
pedagogical experiment,
teaching process.*

ABSTRACT

This article highlights the effectiveness of using educational web resources in developing the professional competence of future English teachers in the preschool education system. During the research, experimental studies were conducted, revealing the positive impact of web-based activities on students' methodological, digital, and communicative competences. The paper substantiates the importance of integrating digital literacy, interactive methods, and innovative technologies into teacher professional training. It also outlines the stages of experimental work, mechanisms for organizing the educational process, and recommendations for modernizing the curriculum of the "Foreign Language (English) in Preschool and Primary Education" program. The findings confirm the effectiveness of web resources in enhancing the professional competence of English language teachers.

ЗНАЧЕНИЕ ФОРМИРОВАНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА В СИСТЕМЕ ДОШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Мойдинова Эльмира Камариддиновна

PhD, и.о. доцент Узбекский государственный университет мировых языков

mirlife645@gmail.com

ORCID 0009-0009-2794-6721

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17340734>

ARTICLE INFO

Received: 05th October 2025

Accepted: 10th October 2025

Online: 13th October 2025

KEYWORDS

ABSTRACT

В статье освещается эффективность использования образовательных веб-ресурсов в процессе формирования профессиональной



профессиональная компетенция, образовательные веб-ресурсы, преподаватель английского языка, цифровая грамотность, инновационные технологии, дошкольное образование, методическая подготовка, коммуникативный подход, педагогический эксперимент, учебный процесс.

компетенции будущих учителей английского языка в системе дошкольного образования. В ходе исследования проведены опытно-экспериментальные работы, которые показали положительное влияние занятий, организованных с использованием веб-ресурсов, на развитие методической, цифровой и коммуникативной компетенций студентов. Также обоснована необходимость формирования цифровой грамотности, применения интерактивных методов и инновационных технологий в профессиональной подготовке преподавателей. В статье представлены этапы эксперимента, механизмы организации учебного процесса, а также рекомендации по модернизации содержания обучения по направлению «Иностранный язык (английский) в дошкольном и начальном образовании». Полученные результаты подтверждают эффективность применения веб-ресурсов в развитии профессиональной компетенции преподавателей английского языка.

MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMIDA BO'LAJAK INGLIZ TILI O'QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISHNING AHAMIYATI

Moydinova Elmira Kamariddinovna

PhD, v.b. dotsent O'zbekiston Davlat Jahon Tillari Universiteti
mirlife645@gmail.com

ORCID 0009-0009-2794-6721

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17340734>

ARTICLE INFO

Received: 05th October 2025
Accepted: 10th October 2025
Online: 13th October 2025

KEYWORDS

kasbiy kompetensiya, ta'lim veb-resurslari, ingliz tili o'qituvchisi, raqamli savodxonlik, innovatsion texnologiyalar, maktabgacha ta'lim, metodik tayyorgarlik, kommunikativ yondashuv,

ABSTRACT

Mazkur maqolada maktabgacha ta'lim tizimida bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini shakllantirishda ta'lim veb-resurslaridan foydalanishning samaradorligi yoritilgan. Tadqiqot davomida tajriba-sinov ishlari o'tkazilib, veb-resurslar yordamida tashkil etilgan mashg'ulotlarning talabalarning metodik, raqamli va kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishga ijobiy ta'siri aniqlangan. Shuningdek, o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligida raqamli savodxonlik, interfaol



*tajriba-sinov,
jarayon.*

pedagogik

metodlar va innovatsion texnologiyalardan foydalanish zarurligi asoslab berilgan. Maqolada tajriba-sinov bosqichlari, o'quv jarayonini tashkil etish mexanizmlari, shuningdek, "Maktabgacha va boshlang'ich ta'limda xorijiy til (ingliz tili)" yo'nalishida ta'lim mazmunini modernizatsiya qilishga oid tavsiyalar keltirilgan. Natijalar ingliz tili o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishda veb-resurslardan foydalanish samaradorligini tasdiqlaydi.

KIRISH

Bugungi globallashuv va raqobatbardosh ta'lim muhiti sharoitida bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini shakllantirish ta'lim tizimining eng muhim ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylanmoqda. Xususan, maktabgacha ta'lim tizimida ingliz tili o'qituvchisining tayyorgarlik darajasi bolalarda chet tiliga qiziqish uyg'otish, ularni og'zaki nutqqa o'rgatish hamda dastlabki kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning til o'rganishdagi tabiiy qiziqishi va eslab qolish qobiliyati yuqori bo'lgani sababli, bu bosqichda o'qituvchining kasbiy, lingvistik va pedagogik kompetensiyasi ayniqsa muhim hisoblanadi. Bunday kompetensiya nafaqat til bilimini, balki psixologik-pedagogik tayyorgarlikni, bolalar bilan muloqot o'rnatish san'atini va zamonaviy interfaol usullarni qo'llay olish mahoratini ham o'z ichiga oladi.

Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilari kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish jarayonida pedagogik kompetensiyaning tarkibiy qismlari – kommunikativ, refleksiv, metodik va ijtimoiy kompetensiyalar – o'zaro uyg'unlikda rivojlantirilishi zarur. Shu orqali o'qituvchi maktabgacha ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etish, bolalarda ijodkorlik, nutq faolligi va til o'rganishga ijobiy munosabatni shakllantirish imkoniga ega bo'ladi [3].

Hozirgi kunda O'zbekiston ta'lim tizimida erta yoshdan chet tilini o'rgatish jarayoniga e'tibor kuchaygan. Bu esa, o'z navbatida, maktabgacha ta'lim muassasalarida faoliyat yurituvchi ingliz tili o'qituvchilari uchun kasbiy kompetensiyani shakllantirish va rivojlantirishning zamonaviy yondashuvlarini ishlab chiqish zaruratini keltirib chiqarmoqda.

Shunday qilib, bo'lajak ingliz tili o'qituvchisining kasbiy kompetensiyasi – bu nafaqat bilim va ko'nikmalar majmui, balki bolalar shaxsini rivojlantirish, ularning psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda samarali o'qitish metodikasini qo'llay olish qobiliyatidir. Mazkur masalaning ilmiy-nazariy asoslarini o'rganish va amaliy mexanizmlarini ishlab chiqish – zamonaviy pedagogika oldidagi dolzarb vazifalardan biridir.

Nemis pedagogik ilmiy adabiyotlari tahlili shuni ko'rsatdiki, nemis pedagogika fanida "kompetensiya" va "kompetentlik" tushunchalaridan foydalanish Genrix Rot (Heinrich Roth) va Manfred Lyovish (Manfred Löwisch) mualliflik yondashuviga



asoslanadi. Ularga ko'ra, nemis nazariy pedagogikasiga "kompetentlik" tushunchasini birinchi bo'lib kiritgan Genrix Rot (Heinrich Roth) fikricha, unga "tajriba, mahsuldorlik, tanqid qilish qobiliyati va amalga oshirilgan tarbiyaviy harakatlar uchun javobgarlik birligi", deya ta'rif beradi [12; 503]. Manfred Lyovish (Manfred Löwisch) nazariyasi bo'yicha "kompetentlik" tushunchasini ikki xil ta'lim darajasiga ajratadi, ya'ni birinchisiga turli xil kompetensiyalarni rivojlantirishga imkon beradigan malakalar yig'indisini kiritadi, ikkinchi darajasi esa kompetensiya egasi sifatida shaxs bilan chambarchas bog'liq bo'lgan tarbiyaviy vazifadir [6].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Kasbiy kompetensiya muammosi va uning turli jihatlari mamlakatimiz pedagog olimlari, MDH va xorijiy mamlakatlari olimlarining tadqiqot mavzusi bo'lib kelmoqda.

Jumladan, kasbiy kompetensiya (N.A.Muslimov, F.X.Ibragimova, A.K.Markova, V.A.Yakunin), metodik kompetensiya (M.S.Berdibayev, K.T.Umataliyeva, Yu.Yu.Kovaleva); psixologik kompetensiya (O.Ye.Haitov, I.F.Demidova, A.V.Gutko, A.D.Alferov); kommunikativ kompetensiya (L.T.Axmedova, D.A.Tadjibayeva, X.A.Yulbarsova, U.X.Mingboyev, Yu.I.Yemelyanov, S.L. Bratchenko, G.S. Trofimova, Ya.V.Taraskina, I.V.Alexina, T.P. Popova); sosiolingvistik kompetensiya (K.Dj. Riskulova, L.F.Zuyeva, I.A.Isenko, N.V.Nabatova); ijtimoiy-madaniy kompetensiya (N.P.Abdimuratova, S.A.Ziyayeva, S.E.Chexova, S.V.Paxotina, M.V.Bolina, L.A.Borxodoyeva); informasion kompetensiya (A.M.Orobinskiy, D.V.Golubin, N.L.Greylix); axborot kommunikativ kompetensiya (I.A.Eshmamatov, S.V.Kalmykova), mafkuraviy kompetensiya (D.M.Mamatqulov), badiiy-estetik kompetensiya (F.T.Rabbimova, D.V.Ryijov), frazeologik kompetensiya (U.U.Jumanazarov), lingvodidaktik kompetensiya (K.Joldoshbayeva) va boshqa turlari ilmiy o'rganilgan.

A.N.Pisarenko kasbiy kompetentlikni quyidagicha ta'riflagan "...mutaxassisning kasbiy faoliyati sharoitida dinamik ravishda o'zgaruvchan jamiyatda erkin harakatlanish imkonini beruvchi shaxsiy sifatlarining majmui, o'z imkoniyatlarini maksimal darajada qo'llash, jamiyat ehtiyojlariga moslashishdir" [10]. Shuning uchun kasbiy kompetentlikning rivojlanishi ma'lum muhitdagi jarayon hisoblanadi, ya'ni pedagogning o'z ustida tinmay izlanishi va ishlashi, mustaqil ravishda bilim mahoratlarini oshirib borishi muhim ahamiyat kasb etadi.

O.I. Mezenseva va Ye.V. Kuznesova monografiyasida oliy o'quv yurtidan keyingi ta'limning mazmuni va texnologiyalarini takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari ko'rib chiqilgan bo'lib, uning asosiy vazifasi innovatsiyalarga yo'naltirilgan, raqobatbardosh shaxsni tayyorlashdan iborat. Shu bilan birga o'qituvchining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish, uning doimiy takomillashishi monitoringini olib borish, o'qituvchining shaxsiy "men - konsepsiyasini"ni shakllantirish uchun maxsus ishlab chiqilgan texnologiyani amalga oshirishni ta'minlaydigan kasbiy rivojlanishning yangi modelini yaratish orqali amalga oshirish mumkin [7; 158].

V.Ya. Adolfning tadqiqotida kasbiy kompetensiyaga quyidagicha ta'rif berilgan:

ruhiy zo'riqishni kamaytiradigan va hissiy barqarorlikni oshiradigan omil;

kognitiv va kasbiy faoliyat o'rtasidagi munosabatlar shakli;

talabaning o'quv faoliyatini, mutaxassisning kasbiy faoliyatidagi izchillikni tartibga soluvchi mexanizm [1; 51].



V.N. Shashok, I.Nyu. Sapunning o'quv-uslubiy qo'llanmasida kasbiy kompetensiya bir nechta kompetensiyalarning "ko'payishi" dan iborat deya tariflaydi. Ya'ni, kompetensiyalarni quyidagicha ko'rib chiqish mumkin:

shaxs muayyan faoliyatni amalga oshirish uchun ega bo'lgan ko'nikmalar majmui sifatida;

ta'lim natijasida olingan turli xil shaxsiy xususiyatlar;

muayyan faoliyatni amalga oshirish qobiliyati;

nazariy va amaliy masalalarni yechish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va tajriba va hokazo [13; 7].

Unga ko'ra bizning tadqiqot ishimiz bo'lajak o'qituvchilar bo'lganligi sababli biz kasbiy kompetensiyani tahlil qilamiz, ayniqsa, bo'lajak ingliz tili o'qituvchisi sifatida talabalarning kasbiy kompetensiyasini shakllantirish bo'yicha keyingi paragrafimizda to'liq ko'rib chiqamiz va ushbu ilmiy-nazariy g'oya yuzasidan o'zimizning qarashlarimizni olg'a suramiz.

Demak, O'zbekiston oliy o'quv yurtlarida bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashda nafaqat zamonaviylashtirish, ta'lim metodikasi va ta'limning jahon tajribasini hisobga olish, balki ularning yechimini izlash ham maqsadga muvofiqdir.

Biz tadqiqotimiz jarayonida maktabgacha ta'limda bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasi tuzilmasi yaratish muammosi yuzasidan bir qator xorijiy, MDH mamlakatlari va yurtimiz olimlarining qarashlariga ham tayandik. Jumladan, chet tili (ingliz tili) o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasi mavzusi doirasidagi ilmiy-nazariy qarashlar Ye.A. Kostina, G.G. Azizova bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini o'rganishda O.Ye. Lomakina, S.N. Aliyev, M.A. Abdullayeva, F.X. Ibragimovaning maktabgacha ta'limda bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasi mavzusiga oid N.V. Xaritonova, Ye.S. Mityushovaning olg'a surilgan fikrlari va g'oyalari ilmiy-nazariy asos bo'lib xizmat qildi.

Ushbu mavzu ilmiy-nazariy tadqiq etilishidan oldin avvalgi paragrafimizda berilgan o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini shakllantirishning tarkibiy tuzilmasi (motivasion-qiyimatli, kognitiv, faoliyatga yo'naltirilgan, jarayonli, refleksiv) mohiyatiga e'tibor bergan holda, bosqichma-bosqich keyingi tuzilmalarning mazmunini tahlil qilamiz.

O'zbek olimasi K.Dj. Risqulovaning ta'kidlashicha, til shaxs ijtimoiylashuvining muhim komponenti hisoblanadi. Til ijtimoiylashuvning kuchli omilidir [11; 132]. Demakki, til lingvistik qobiliyatning muhim mexanizmi hisoblanadi. Uning muhim mezonlari, omillari hamda bo'lajak mutaxassisning metodologik, ijtimoiy faollik, metodik, texnologik yuzasidan tayyorgarligiga nazar tashlash maqsadga muvofiqdir.

Bo'lajak o'qituvchining kasbiy malakasini shakllantirish muammosi barcha tarixiy davrlar uchun dolzarb hisoblangan, chunki o'sib-ulg'ayayotgan yosh avlodning taqdiri ko'p jihatdan o'qituvchiga bog'liq bo'ladi. O'qituvchilarni tizimli kasbiy tayyorlash XVIII asr o'rtalarida, ya'ni bir qator davlatlarda maxsus muassasalar ochilganda boshlangan. Shu davrdan boshlab pedagogik ta'lim mohiyatining muammosi amaliy muammolar darajasiga o'tdi; XVIII-XIX asrlarda uning asosiy tarkibiy qismlari, jumladan tegishli fan predmeti bo'yicha bilimlari, psixologik-pedagogik va metodik bilimlari, pedagogik amaliyotlar tizimi shakllandi. XX asrning birinchi yarmida pedagogik faoliyatning tarkibiy



qismlarining mohiyati takomillashdi va oydinlashdi. Bugungi kun nuqtai nazaridan, o'qituvchining kasbiy pedagogik chuqur bilimiga egaligi – bu uning nazariy-metodologik, psixologik-pedagogik, metodik va amaliy tayyorgarligining yuqori darajasini o'z ichiga olgan umumlashtirilgan shaxsiy ta'limni ifodalaydi.

K.S. Maxmuryanning fikricha, chet tili o'qituvchisi kasbiy kompetensiya tuzilmasining tarkibiy qismlarini ajralmas birlik deb hisoblab, unda bilim, ko'nikma va malaka vositalari yig'indisi psixologik-pedagogik, metodik, kommunikativ, filologik, umumiy madaniy, axborot, ijtimoiy va boshqaruv kompetensiyasi tarkibiy qismlari orqali namoyon bo'ladi [2; 75].

Shu nuqtai nazardan, olim I.M. Tuxtasinov fikriga ko'ra, bo'lajak mutaxassisni tayorlashda milliy madaniyat, umumiy madaniyat, milliy til, mentalitet kabi tafakkur kategoriyalarini chuqur anglash lozimligi va tarjima jarayoni ikki tilning, ya'ni ikki madaniyatning o'zaro muloqoti bilan etiket qoidalariga amal qilish, mustaqil fikr yurita olish kompetensiyasiga ham ega bo'lishini talab etiladi [14; 55].

Shuni ta'kidlash joizki, ingliz tili o'qituvchilari kasbiy kompetensiyasi tuzulmasi Ye.S. Mityushovanning tadqiqot ishida keng yoritib berilgan bo'lib, quyidagi turlarga ajratilgan:

Asosiy kompetensiyalar: insonning tarbiya va ta'lim jarayonida, erda bolalikdan boshlab, jumladan oliy ta'lim tizimi va kelajakda mustaqil ta'lim olish jarayonida egallagan bilimlari hajmiga bog'liq.

Ushbu tadqiqot ishida maxsus kompetensiyalar maktabgacha yoshdagilarga ingliz tilini o'qitish jarayonining o'ziga xos xususiyatlarini bevosita aks ettiradi. Shu tarzda, maxsus kompetensiyalar guruhi quyidagi tarkibiy qismlar bilan ifodalanadi: metodik kompetensiya, nutq kompetensiyasi, amaliy kompetensiya, o'yin kompetensiyasi, aktyorlik kompetensiyasi, adaptiv kompetensiya, musiqiy kompetensiya.

Tayanch kompetensiyalar: pedagogika OTMLarida bevosita tilshunoslik, pedagogika, psixologiya, chet tilini o'qitish metodikasi kabi fanlarni o'rganish jarayonida yuzaga keladi. Unga ko'ra, yuqori kurs talabalari turli darajada shakllangan, yuqorida ko'rsatilgan kompetensiyalarga ega bo'ladi.

Olima A.M. Kozlovaning ta'kidlashicha, bo'lajak maktabgacha ta'lim pedagogi, ya'ni malakali mutaxassisi bolaga ingliz tilini o'rgatish uchun amaliy tayyorgarligi quyidagi bir qator kasbiy ko'nikmalarni shakllantirishni taqozo qiluvchi ta'lim va tarbiya jarayonining zamonaviy talablarini hisobga olishi kerak:

bola bilan pedagogik o'zaro munosabatlarda amalga oshiriladigan talablarni tahlil qilish, bu talablarni baholash imkonini beradigan analitik ko'nikmalar;

pedagogik bilimlarni bola bilan ta'lim va tarbiyaviy ishda qo'llash ko'nikmasi;

bola bilan ta'lim va tarbiyaviy ish jarayonini rejalashtirish, tayyorlash va amalga oshirish ko'nikmasi;

pedagogik diagnostika, bolaning rivojlanishiga pedagogik yordam berishni amalga oshirish uchun mutaxassis rahbarligida bolaning individual fazilatlarini tahlil qilish ko'nikmasi;

ta'lim va tarbiya jarayonida bolaning individual xususiyatlarini hisobga olishga imkon beruvchi oldindan aytib berish ko'nikmasi;



maktabgacha ta'lim tashkilotlarida rivojlanayotgan muhitni tahlil qilish va unda estetik jihatdan to'g'ri tashkil etilgan rivojlanayotgan muhitni yaratish ko'nikmasi; bola bilan ta'lim va tarbiyaning o'zaro ta'sirida zamonaviy innovatsion texnologiyalardan foydalanish ko'nikmasi [5].

Demak, pedagog bola bilan muloqotda analitik va rejalashtirish qobiliyatlariga, pedagogik diagnostika, bashorat qilish, shuningdek, zamonaviy innovatsion texnologiyalarni qo'llay olish malakasiga ega bo'lishi zarur. Shu jihatdan, maktabgacha ta'lim tizimida ingliz tili o'qituvchisining kasbiy kompetensiyasi bolaning har tomonlama rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan integrativ jarayon sifatida qaraladi.

NATIJALAR

Tajriba-sinov ishlarini tashkil etish ta'lim jarayonining ilmiy asoslanganligini, o'qitish usullarining samaradorligini aniqlash va takomillashtirishni ta'minlaydigan muhim bosqich hisoblanadi. Bu jarayon pedagogik tajriba, nazariy tahlil va amaliy tekshirish asosida yangi metodik yondashuvlarning amaliy qiymatini aniqlashga xizmat qiladi. Tajriba-sinov ishlari o'qituvchi faoliyatining ilmiy-tadqiqot jihatini kuchaytirib, ta'lim sifatini oshirish, innovatsion metodlarni sinovdan o'tkazish va ularni amaliyotga tatbiq etish imkonini beradi.

Tajriba-sinov ishlarini tashkil etish to'rt bosqichdan iborat bo'lib, ular quyidagilarni tashkil qiladi:

- tashxis va bashorat qilish;
- tashkiliy tayyorgarlik;
- amaliy bosqich;
- umumlashtiruvchi bosqichlardir (1-jadvalga qarang):

1-jadval

Tajriba-sinov bosqichlari tavsifi

No	Tajriba-sinov ishining bosqichlari	Tashkil etilgan jarayonlar
1.	Tashxis va bashorat qilish bosqichi	- Pedagogik tahlil markazlari belgilandi;- Muammo o'rganildi va tadqiqot mavzusi shakllantirildi;- Tajriba-sinov ishining maqsadi va vazifalari aniqlab olindi.
2.	Tashkiliy tayyorgarlik bosqichi	- Tajriba-sinov maydoni hamda ishtirokchilar tarkibi shakllantirildi;- Pedagogik jarayonning metodik tavsifi ishlab chiqildi;- Tajriba-sinov ishlari uchun didaktik ta'minot tayyorlandi.
3.	Amaliy bosqich	- Ta'kidlovchi, shakllantiruvchi va nazorat qiluvchi tajriba-sinov ishlari amalga oshirildi;- Tajriba-sinov ishlari tajriba va nazorat guruhlarida bosqichma-bosqich olib borildi.
4.	Umumlashtiruvchi bosqich	- Tajriba-sinov natijalarini umumlashtirish algoritmi ishlab chiqildi;- Tatbiq etish va amaliy qo'llash bosqichi amalga oshirildi.

Jadvalda ko'rsatilgan, tajriba-sinov ishlarining birinchi bosqichida (2021-2022 yillar) tadqiqotimizga doir falsafiy, tarixiy, pedagogik va psixologik manbalar o'rganildi, muammoning hozirgi holati bo'yicha ilmiy-nazariy xulosalar ishlab chiqildi.



Mashg'ulotlar 6 oy davomida, har haftada 2 marta tashkillashtirilib, bu muddatda nazorat guruhlarida darslar an'anaviy tarzda o'tkazildi. Didaktik ta'minotga asoslangan ta'lim yondashuvining asosiy maqsadi - har bir bosqichda qo'llanilgan ta'lim veb-resurslarining formatlari, har bir formatlarni osondan murakkabi tomon qo'llashni, ilmiy-pedagogik dissertasion tadqiqot natijalarini aprotatsiyadan o'tkazish, tajriba-sinov ishlarini guruhlarda bosqichma-bosqich holatda amalga oshirishni ko'zda tutadi.

Jumladan, 2021 yil O'zbekiston Milliy Universiteti A-OT-2021-419 raqamli "Davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ingliz tili o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini oshirish kursining elektron platformasini yaratish (Rre-school PDP)" nomli innovasion loyihasida qatnashib, Respublika bo'yicha g'oliblardan biri bo'lishga sazovor bo'ldik. Ushbu tadqiqot ishimizning natijalaridan platformada zamonaviy pedagogik metodlarga mos materiallar hamda veb-resurslar yordamida mashg'ulot mazmunini boyitishda, ingliz tili o'qituvchilarining onlayn bilimni rivojlantirishda, shu bilan birgalikda, bolalarning lug'at boyligini oshirishda, tinglab tushunish, gapirish va kognitiv hamda motorika mahoratlarini rivojlantirishga mo'ljallangan turli o'yin, qiziqarli mashg'ulotlar va tarqatma materiallardan foydalanib, "Tiny English", "Bunny English" nomli metodik qo'llanmalar va yillik ish rejalar tayyorlashda o'z hissamizni qo'shdik. Shuningdek, "Maktabgacha va boshlang'ich ta'limda xorijiy til (ingliz tili)" yo'nalishi bo'yicha bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini shakllantirish metodlarini ishlab chiqib, kelajakda, o'z ustida uzluksiz ishlash jarayonida, veb-resurslar formatini to'g'ri qo'llay olish mashqlarini samarali ishlab chiqish tizimini shakllantirish bo'yicha takliflar berdik. Xususan, MTTda ingliz tilini o'rgatish uchun 5-6 yoshli tarbiyalanuvchilarga mo'ljallangan "Sunny English" nomli darslikni yaratishda yaqindan yordam berdik hamda bir qator metodik usullar va tavsiyalar ishlab chiqdik.

MUHOKAMA

Bugungi kunda raqamli texnologiyalarni ta'lim jarayoniga samarali integratsiya qilish, ayniqsa, bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini shakllantirishda muhim omil sifatida e'tirof etilmoqda. Maktabgacha va boshlang'ich ta'limda xorijiy tilni o'qitish metodikasini takomillashtirish, zamonaviy ta'lim vositalari va veb-resurslardan foydalanish orqali o'quv jarayonining sifatini oshirish, pedagogik faoliyatni raqamli asosda tashkil etishni talab qiladi.

Pedagoglarning 86%, talabalarining esa 78% umumkasbiy fanlar blokiga kiruvchi "Maktabgacha va boshlang'ich ta'limda ingliz tilini o'qitish metodikasi" va "Ingliz tili amaliy kursi" fanlari bo'yicha amaliy mashg'ulotlarni ta'lim veb-resurslari yordamida rejalashtirish, talabalarining kasbiy kompetensiyasini shakllantirishda ijobiy natija ko'rsata olishini ta'kidlagan. Demak, dars mashg'ulotlarida ta'lim veb-resurslaridan foydalanish samarali natijalar beradi.

Anketa so'rovnomalarda talabalarga quyidagi savollar bilan murojaat qilindi (9-ilova). Buning natijalari shuni ko'rsatdiki, talabalardan ko'pchiligi, ya'ni 89,7% maktabgacha ta'limda o'qituvchiga ingliz tilidan tashqari "Maktabgacha va boshlang'ich ta'limda ingliz tilini o'qitish metodikasi", 91,8% "Ingliz tili amaliy kursi", 80,2% esa "Chet tilini o'rganishda AKT (axborot-kommunikatsiya texnologiyasi)" fanlarini bilishlari kerakligini ta'kidlashgan. Navbatdagi kasbga doir "Siz maktabgacha va boshlang'ich



ta'limda ingliz tili o'qituvchisi mutaxassisligini tanlashingizga nima turtki berdi?" degan savolga talabalarining 51,7%, ya'ni 120ta talaba bolalarga ingliz tilini o'rgatishga qiziqishini, o'z hohishiga ko'ra tanlaganini e'tirof etgan, 13,8% esa ushbu ta'lim yo'nalishini tanlashining maqsadi, jamiyatimiz aynan shu mutaxassislarga muhtoj deb hisoblaydi, biroq 10,7% Oliy ma'lumot diplomini olish uchun topshirganini, 6,2% chet tilini puxta o'rganish tufayli va faqat 1,2% gina talaba boshqa tanlov bo'lmaganligini, bu mutaxassislikni tasodifan tanlaganligini aytgan. Boshqa sabablarga esa, talabalar yoshligidan bog'cha ochishni orzu qilganligi, shuning uchun bu sohani mukammal o'rganmoqchiligi ta'kidlab o'tgan. Keyingi savol ham kasbiy tayyorligini aniqlashga oid bo'lib, unda quyidagi "Universitetni bitirganingizdan keyin qayerda ishlashni xohlaysiz?" degan savolga talabalarining eng ko'pi, ya'ni 61,6% magistraturaga kirishga harakat qilishini, 21,6% kelajakda ingliz tili o'qituvchisi sifatida bolalar bog'chasi yoki o'rta maktabda ishlashini, 14,2% ingliz tili talab qilinadigan kompaniya yoki boshqa bir nufuzli tashkilotga ishga kirish uchun harakat qilishini va faqat 2,6% talaba bilmasligini, hali bu haqida o'ylamaganligini aytgan. Demak, bo'lajak maktabgacha ta'lim ingliz tili o'qituvchi sifatida kelajakdagi kasbiga mahorati, qiziqishi va ishtiyoqi shakllanganligini ta'kidlash mumkin. Ammo savolnomada qatnashgan barcha respondentlarni ayol jinsiga oid, ya'ni qiz bola talabalar tashkil etgan. Demak, bu yo'nalishga o'g'il bolalardan ko'ra faqat qizlar qiziqadi.

Anketa so'rovnomalarda pedagoglarga quyidagi savollar bilan murojaat qilindi va natijalari olindi. Olingan natijalardan shu ma'lum bo'ldiki, maktabgacha va boshlang'ich ta'limda xorijiy til (ingliz tili) yo'nalishida dars o'tadigan pedagoglar deyarli 77% berilgan birinchi bo'limning barcha fanlarini maktabgacha ta'limda o'qituvchiga ingliz tilidan tashqari bilishi kerakligini ma'kullashgan. Talabalarining bergan javoblari bilan solishtirganda, o'rtacha qiymati 77,8%ni tashkil etdi, ya'ni o'qituvchilar bilan talabalarining fikri deyarli bir xilligini anglatadi. Ikkinchi bo'limda berilgan savollarda "Maktabgacha yoshdagi bolalarga ingliz tilini o'rgatish uchun o'qituvchining tilni bilish darajasi quyidagicha bo'lishi kerak, deb hisoblayman" degan savolga pedagoglarning 14%, talabalarining 31% esa C1 darajada bo'lishi kerakligini ta'kidlagan. Demak, "Maktabgacha va boshlang'ich ta'limda xorijiy til (ingliz tili)" yo'nalishi bo'yicha bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarning til bilish darajasi yuqori bo'lishi shart emas deya hisoblashadi. So'rovnomaning 3.1-savoliga 46% pedagog, amaliyot vaqtida talabalar bolalar bilan ishlashda qiyinchiliklarga duch kelishlarini ta'kidlab o'tganlarini ko'rish mumkin. Shu jumladan, pedagoglarga berilgan 8-10 gacha bo'lgan savollar farqli bo'lganligi sababli, ularni alohida tahlil qilishni ma'qul ko'rdik. 8-savolga pedagoglarning 69% talabalarini ingliz tilini bilish darajasi yetarligini ta'kidlagan. Pedagoglarning 86%, talabalarining esa 78% umumkasbiy fanlar blokiga kiruvchi "Maktabgacha va boshlang'ich ta'limda ingliz tilini o'qitish metodikasi" va "Ingliz tili amaliy kursi" fanlari bo'yicha amaliy mashg'ulotlarni ta'lim veb-resurslari yordamida rejalashtirish, talabalarining kasbiy kompetensiyasini shakllantirishda ijobiy natija ko'rsata olishini ta'kidlagan. Demak, dars mashg'ulotlarida ta'lim veb-resurslaridan foydalanish samarali natijalar beradi.

Umuman, ta'lim veb-resurslariga alohida e'tibor berilishi maqsadga muvofiq. O'tkazilgan tadqiqot tajribasi quyidagi xulosalar chiqarishga imkon berdi:



ko'pchilik o'qituvchilar bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarning ta'lim veb-resurslarini formatlarini to'g'ri yaratish va ulardan foydalanish bo'yicha mavjud tayyorgarligining yetarli emasligini ta'kidlaydilar, chunki ta'lim veb-resurslari orqali kasbiy kompetensiyasini shakllantirish, berilgan yetti formatini o'qitish mazmunida texnologik jihatlarning pedagogik va metodik jihatlardan u

stunligi sababli, axborot texnologiyalari sohasida umumiy nazariy tayyorgarlikning yetishmasligiga olib keladi;

mavjud vaziyatning asosiy sababi, o'qituvchilarning tegishli o'quv qo'llanmalari, uslubiy ishlanmalar va ta'lim veb-resurslari haqida bilim ko'nikmalari yetishmasligi deb hisoblanadi.

Demak, belgilab olingan tajriba-sinov maydonlarida "Maktabgacha va boshlang'ich ta'limda xorijiy til (ingliz tili)" yo'nalishi bo'yicha yuqori bosqichda qo'llangan tadqiqot metodlari, hamda o'qitish metodikasi (metodik va didaktik ta'minoti) bo'lajak bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini ta'lim veb- resurslari asosida shakllantirishda samaradorligini ko'rsatdi.

Shu nuqtai nazardan, nafaqat turli fanlar negizida talabalarning raqamli savodhonligini bilvosita rivojlantirib borish, balki talabalarga uning mohiyati, mehnat faoliyatidagi ahamiyati va o'rnini bevosita tanishtirish, ularga mazkur yo'nalishda bilim berish maqsadga muvofiqdir. Bu talabalarda o'z raqamli kompetensiyasini rivojlantirib borishga bo'lgan motivatsiya, uni rivojlantirishda mustaqil ta'lim olib borish ishtiyoqini yuzaga keltiradi, zamonaviy mehnat bozoridagi tendensiyalarni o'rganish hamda shu orqali xalqaro maydonda o'z o'rniga ega bo'lgan mutaxassis sifatida bo'lishiga zamin yaratadi.

2. Umumkasbiy fanlar blokiga kiruvchi, jumladan, ingliz tili fani kesimida talabalarning kasbiy kompetensiyasini ta'lim veb-resurslari orqali shakllantirish maqsadida "Maktabgacha va boshlang'ich ta'limda xorijiy til (ingliz tili)" yo'nalish uchun mo'ljallangan o'quv dasturlarini mazkur maqsaddan kelib chiqqan holda qayta ko'rib chiqish, o'quv darsliklarida talabalarni kelajakda maktabgacha ta'limda ishlashini inobatga olgan holda, raqamli savodhonligini oshirish, hamkorlikda ishlash, tanqidiy fikrlash, ijodiy va kreativ yondashish, mutaxassislik talablaridan kelib chiqqan holda qo'shimcha zaruriy ta'lim veb-resurslarining yettita formati yordamida tuzilgan mashq va topshiriqlarni ko'paytirish lozim. Jumladan, tajriba-sinov ishlarini olib borish jarayonida belgilangan barcha OTMlardagi ta'lim yo'nalishi 5112200 – Maktabgacha va boshlang'ich ta'limda xorijiy til (ingliz tili), o'quv bloki 3.00 – umumkasbiy fanlar o'quv bloki bo'yicha ta'lim olib kelayotgan yuqori bosqich talabalarining ta'lim mazmuni tahlil qilindi.

Maktabgacha va boshlang'ich ta'limda xorijiy til (ingliz tili) faning maqsadi, vazifalari, kontenti, metodlari, baholash mezonlari va natijalarni tahlilini aniqlab ishlab chiqishda pedagoglarga yordam berish;

Talabalar muammoli va ijodiy xarakterdagi mashqlarni bajarishda o'zlarining ma'lumot so'rovlarini aniqlash uchun internetdan qanday foydalanishni o'rganishlari kerak.

XULOSA



Yuqoridagi tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, maktabgacha va boshlang'ich ta'lim tizimida ingliz tili o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini shakllantirishda ta'lim veb-resurslaridan foydalanish samarali natijalar beradi. Pedagog va talabalarning katta qismi bu jarayonni qo'llab-quvvatlagan holda, veb-resurslar o'qituvchining metodik tayyorgarligini oshirish, dars samaradorligini kuchaytirish hamda talabalarning raqamli kompetensiyasini rivojlantirish uchun muhim vosita ekanini ta'kidlagan.

Tajriba-sinov ishlari natijalari shuni tasdiqladiki, dars jarayonida raqamli vositalar va interfaol platformalardan foydalanish o'quvchilarning til o'rganishga bo'lgan qiziqishini oshiradi, o'qituvchi uchun esa yangicha yondashuvlar va metodik yechimlarni sinovdan o'tkazish imkonini beradi. Shu bilan birga, tajriba jarayonida "Maktabgacha va boshlang'ich ta'limda xorijiy til (ingliz tili)" yo'nalishida ta'lim mazmunini yangilash, o'quv dasturlari va darsliklarni raqamli savodxonlik, tanqidiy fikrlash, ijodiy yondashuv tamoyillari asosida qayta ishlab chiqish zarurligi aniqlandi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, maktabgacha ta'limda ingliz tili o'qituvchisining kasbiy kompetensiyasi – bu nafaqat lingvistik bilim va metodik mahorat majmui, balki raqamli, kommunikativ va innovatsion kompetensiyalarni o'z ichiga olgan kompleks tayyorgarlik tizimidir. Shu bois, oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarini tayyorlashda veb-resurslardan foydalanish madaniyatini shakllantirish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini amaliy mashg'ulotlarga integratsiya qilish va kasbiy o'sishni uzluksiz qo'llab-quvvatlash zamonaviy ta'limning asosiy vazifalaridan biri bo'lib qolmoqda.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Adol'f, V.Ya. (1998). Professional'naja kompetentnost' sovremennogo uchitelja: Monografija [Professional competence of the modern teacher]. Krasnojarsk: Krasnojarskij gosudarstvennyj universitet. (310 pp.)
2. Belonozhkina, E.G. (2009). Professional'naja kompetencija uchitelja inostrannogo jazyka [Professional competence of a foreign language teacher]. IJaSh, (5), 74–77.
3. Kamariddinova, M.E. (2022). Professional Competence Structure of Future Pre-school English Teachers. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 10(12), 15-18.
4. Kamariddinova, M.E. (2022). The structure of professional competence of preschool English teachers. International Journal of Pedagogics, 2(07), 1-4.
5. Kozlova, A.M., Nikiforova, E.V., & Skopinova, N.A. (2004). Doshkol'noe obrazovanie: Uchebno-metodicheskoe posobie [Preschool education: A teaching manual]. Moscow: CGL. (80 pp.)
6. Löwisch, M. (2000). Kommentar zum Kündigungsschutzgesetz (8th rev. ed.). Heidelberg: Verlag Recht und Wirtschaft. (648 pp.)
7. Mezenceva, O.I., & Kuznecova, E.V. (2013). Psihologo-pedagogicheskie uslovija razvitija professional'noj kompetentnosti sovremennogo pedagoga: Monografija [Psychological and pedagogical conditions for developing teachers' professional competence]. Novosibirsk. (158 pp.)



8. Moydinova, E. (2024). Effective strategies for teaching in the digital age. In Fergana state university conference.
9. Moydinova, E., & Uzakbaeva, A. (2024). Exploring the efficacy of internet resources in developing speaking proficiency among 10th grade students. *Talqin va tadqiqotlar*, 9, 46.
10. Pisarenko, A.N. (2011). *Formirovanie professional'noj mezhkul'turnoj kompetentnosti studentov [Developing students' professional intercultural competence]* (Candidate of Pedagogical Sciences dissertation). Saratov. (202 pp.)
11. Risqulova, K.Dj. (2017). *Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining sosiolingvistik kompetentligini shakllantirish tizimi [System of forming sociolinguistic competence of future English teachers]* (Doctoral dissertation). Tashkent. (132 pp.)
12. Roth, H. (1976). *Paedagogische Anthropologie*. Hermann Schroedel Verlag KG. (503 pp.)
13. Shashok, V.N., & Sapun, I.N. (2013). *Povyshenie kvalifikacii vospitatelej doshkol'nogo obrazovaniya, imejushhih vtoruju kvalifikacionnuju kategoriju [Professional development of preschool educators with the second qualification category]*. In *Akademija poslediplomnogo obrazovaniya (Vol. 1)*. Minsk: APO. (60 pp.)
14. Tuxtasinov, I.M. (2018). *Tarjimon tayyorlashda kasbiy kompetensiyalarni ekvivalentlik hodisasi asosida rivojlantirish [Developing translators' professional competencies based on equivalence phenomenon]* (Doctoral dissertation). Tashkent. (203 pp.)